ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2024 / № 4

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL
ADABIYOT
TA'LIM



Philological research:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

Филологические исследования:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2024/ № 4

Termiz – 2024

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 26.04.2024
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV, iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Amonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Kurbanazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Zaynura Qodirova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 26.04.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)

Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)

Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)

Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)

Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)

Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)

Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)

Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)

Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)

Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Шоира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Зайнура Кадирова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 26.04.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Amonturdieva, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Zaynura Kadirova, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

YERJANOVA SAULE BAYMURZAYEVNA,
TO‘YCHIYEVA ZULEYXA HAMROQO‘LOVNA
Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk”
asarida so‘zlarni ko‘chma ma’noda qo‘llash 7

BERDIYEV XUSAN XOLNAZAROVICH
«Devon-u lug‘otit turk»dagi she’rlarda
hojib va radif san’atlari 13

УМУРҚУЛОВ ЗАФАР БЕКПЎЛАТОВИЧ
Қиёслаш инсон тафаккур тарзининг маҳсули 16

ESHBOYEV QAHRAMON BAKIR O‘G‘LI
So‘zlararo darajalanish o‘quv lug‘atida so‘zlarga izoh berish 20

NAVRUZOVA MUYASSAR GAYBULLAYEVNA
Kasallik nomlarining onomasiologik, semantik ifodasi 24

BOZOROV HAMID XO‘SHMURODOVICH
Antroponimlarning lingvomadaniy xususiyatlari
(O‘zbek xalq ertaklarida mavjud antroponimlar misolida) 28

ДЖАББАРОВА ШОИРА БАЛТАЕВНА
Медиа тилида муқобилсиз лексика таснифлари: назарий ёндашув 33

KULTAYEVA FAZILAT BAXTIYAROVNA
Ergonimlarning morfologik derivatsiyasi xususida 36

HAYDAROVA KAMOLA DAVRANOVNA
O‘zbek, rus va ingliz tillarida meva nomlarining qiyosiy-chog‘ishtirma tahlili 39

TERMIROVA KAMOLA
Ziravor atamalar va ularning lug‘atlarda ifodalanishi 43

TURDIMURODOV SIROJIDIN ESHQOBILOVICH,
JABBOROVA SEVARA BAXTIYOR QIZI
Badiiy matnda evfemik birliklar tahlili 50

SOATOVA YULDUZ
Bobur she’riyatida ayol qaddi-qomatini ifoda etuvchi lingvistik vositalar 53

ТОЛИЕВА ШОИРА ИЛХОМОВНА
Лингвистик экспертиза методларининг тамойиллари 57

AVRIDDINOV JOBIR MUSULMON O‘G‘LI
Sharq olimlarning «Zufongo‘yo va Jahonpo‘yo» lug‘atida ilmiy qarashlari 59

ДАВЛЯТОВА ЭЛЬВИРА МУРАДОВНА
Парадигматические свойства иноязычных лексических единиц
в русском и узбекском языках (на материале интернет медиа) 61

МУНДАРИЖА

ЗАРИПОВА МАТЛУБА КУЛФИДИНОВНА
Концепт «богатство» во фразеологизмах
и паремиях узбекского и русского языков 64

РАДЖАПОВА НАТАЛЬЯ БАЗАРОВНА
Эволюция лексических единиц обозначающих мужчин и женщин 67

QULMAMATOVA MUATTAR OTABEK QIZI
Ingliz va o‘zbek maqollarida “boylik” konseptining chog‘ishtirma tadqiqi 70

FARZANA NABI,
ABDULLA XUDAYQULOV ESHQUVVATOVICH
Official documents in dari language, its translation challenges 73

ЖАББАРОВА НАРГИЗА ИСЛАМЖАНОВНА,
РАДЖАПОВА НАТАЛЬЯ БАЗАРОВНА
Влияние гендерной лексики на сознание и поведение людей 76

ADABIYOTSHUNOSLIK

ARSLONOV ABDIMUROD KARAMATOVICH
“Qissasi Rabg‘uziy”da xalq og‘zaki ijodi syujetlari va motivlari 80

КАЗАКОВА ГУЛАСАЛ КУРАЛОВНА
Эссе жанрида шахс концепциясининг бадиий-публицистик талқини 82

LOLAYEV SHUXRAT ALIQOBIL O‘G‘LI
Turkistonda “Usuli jadid” maktablarining shakllanishi va ahamiyati 84

USMONOVA MOHIDIL LAZIZ QIZI
Ravnaq g‘azallari tabdilidagi matniy tafovutlar 87

TA’LIM

ABDUQAYUMOVA NARGIZA RAIMOVNA
Bo‘lajak rus-tili o‘qituvchilarni innovatsion pedagogik faoliyatga
tayyorlash jarayonlarini takomillashtirish metodikasi 90

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ANTROPONIMLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI (o'zbek xalq ertaklarida mavjud antroponimlar misolida)

Bozorov Hamid Xo'shmurodovich,
Termiz davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasi o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Bugungi kunda lingvofolkloristika jahon tilshunoslarining e'tiborini tortib kelayotgan muhim sohalardan biri hisoblanadi. Chunki folklor janrlarida har bir xalqning tarixi yashaydi. Shu ma'noda xalqlar tarixini o'rganish xalq milliy madaniyati, urf-odati, an'analari hamda o'tmishi bilan yaqindan tanishish imkonini beradi. Folklor janrlaridan o'rin olgan onomastik birliklar xalq hayotining ajralmas bo'lagi hisoblanadi. Folklorning eng qadimiy va ommabop janrlaridan biri ertaklar hisoblanib, unda mavjud onomastik birliklar tadqiqiga bag'ishlangan ishlarni amalga oshirish zarurati borligni ko'rsatmoqda. Bunday tadqiqotlar onomasialogiya va lingvofolkloristika sohalarining nazariy masalarini yechishga yordam beradi.

Ertaklar uydurmalarga asoslangan bo'lsa-da ma'lum miqdorda haqiqatlar ham mavjud bo'ladi. Bu esa ertaklar tilida xalq milliyligini ko'rsatuvchi onomastik birliklar ko'p ekanligidan dalolatdir. Jumladan, ertaklar tilida *To'lg'onoy, Munglik, Zorlik, Zumrad, Qimmat, Muqbil, Mehrinigor, Huriliqo, Rustam, Qilich, Ziyod* va boshqa ko'plab antroponimlar (shuningdek, *Ibn Sino, Navoiy, Husayn Boyqaro* kabi poetik antroponimlar), *Ko'hi Qof, Bog'i Eram, Yonar tog', Garimjo'sh, Olatog', Billur tog'* kabi oronimlar, *Jayxun, Qulzam* kabi gidronimlar, *Samarqand, Buxoro, Xorazm, Qo'qon, Misr* kabi toponimlar, *Hindiston Arabiston* kabi etnik etnotoponimlar, *turkman, turk, qozoq, qipchoq, qo'ng'irot* kabi etnonimlar, *Uchtepa, O'ratepa, Kalla bozor, Qo'shbarmoq* kabi oykonimlar, *Bo'ston, Dog'iston, Kan'on, Parsi, Quddus* kabi urbonimlar, *Munkar va Nakir, Azroil* kabi teonimlar, *karnay, nay, dutor, doira, tanbur, g'ijjak* kabi cholg'u asboblari, *olma, anor, kishmish, tarvuz* kabi fitonimlar, *tillaqosh, sirg'a, uzuk, bilaguzuk* kabi taqinchoqlarning, *Xizr, Semurg', ajdar, dev* kabi mifonimlar[1] talaygina. Mana shunday onomastik birliklarning lingvistik va lingvomadaniy xususiyatlarini tadqiqiga bag'ishlangan bir qancha ishlar amalga oshirildi[2], ammo bu ishlar ertaklar matnidagi onomastik birliklarni kompleks tahlili uchun yetarli emas.

Onomastikaning eng muhim tarmoqlaridan biri antroponimika hisoblanadi. Har bir millat o'z madaniyati va urf-odatlari va boshqa bir qancha sabablarga ko'ra ism qo'yilishi barchamizga ma'lum. Ko'plab xalqlar ism qo'yishga jiddiy qarashadi. Ayniqsa, o'zbek xalqi bu masalaga jiddiy e'tibor qaratishadi. Chunki "o'zbek xalqida ismlarning o'rni va mohiyati boshqa xalqlarda bo'lgani kabi ancha chuqur ildizga egadir. Qadim-qadimdan ota-bobolarimiz farzandlariga ism qo'yishar ekan, kelajakda uning baxt-u kamoli mana shu ismiga ham bog'liq, degan qarashlarga ishonishgan. Hattoki, chaqaloqqa ism qo'yish uchun yoshi katta, hayot tajribasiga ega bo'lgan nuroniylar boshchiligida maxsus marosimlar ham o'tkazilgan"[3]. Bu ertak matnlarida ham o'z aksini topadi. Garchi ertaklarimizning ko'pchililgida ertak qahramonlariga ism berilmay, bosh qahramon *chol, kampir, dono xotin, dono qiz, cho'pon, donishmand yigit, donishmand vazir, podsho, xasis boy* (bu holatni jahon xalqlari ertaklarida ham ko'plab kuzatishimiz mumkin) kabilar bilan atalsa-da, aksariyat ertaklarda qahramonning xislatlarini ifodalash uchun ismlardan unumli foydalaniladi. Ma'lum bir ertakda ishtirok etayotgan antroponim bevosita xalq hayoti va milliy-madaniyati,

[1] Bozorov H. O'zbek xalq ertaklarining lingvomadaniy tadqiqi: Filol.fan.b.fals.dok. ...diss. – Termiz, 2023. – B. 36.

[2] Kilichov B., Rahmatullayev Sh. O'zbek ertaklaridagi antroponimlarining lingvomadaniy asoslari // "Filologik tadqiqotlar: muammo va yechim" mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari. – Buxoro, 2021; Rahmatullayev Sh. O'zbek xalq ertaklari tilidagi antroponimlarning lingvokulturologik tadqiqi: Filol.fan.b.fals.dok. ...diss.avtoref. – Buxoro, 2023; Nazarova N. Ertak matnida oykonimlarning faollashuv o'rni. Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions (Germany). 2023.

[3] Kilichov B., Rahmatullayev Sh. O'zbek ertaklaridagi antroponimlarining lingvomadaniy asoslari // "Filologik tadqiqotlar: muammo va yechim" mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari. – Buxoro, 2021. – B. 148.

obrazning xarakteri, ertakdagi o‘rni bilan bog‘liq holda tanlanadi. Xususan, ertaklarning bosh qahramonlariga tanlangan Rustam, Ziyod, Qilich, Qiron – *kuchlilik,* Zumrad, Qimmat, To‘g‘riboy, Egriboy – *xarakter-xususiyati,* Huriliqo, Oyjamol, Husnobod – *go‘zallik* kabi xususiyatlarni ifodalash uchun ham xizmat qiladi. Shuni ham ta’kidlab o‘tish joizki, ertaklardan o‘rin olgan ba’zi antroponimlar xususida ayrim mulohazalar ham mavjud. Quyida shu haqida to‘xtalib o‘tamiz.

Podshoning qirqta xotini bor ekan. Ularning ichida ***Sarvigul*** *degani juda chiroyli ekan. Uni podsho hamma xotinlaridan ko‘proq sevar ekan. Kunlarning birida malika o‘zining ismi go‘zalligiga mos emasligi to‘g‘risida podshoga shikoyat qilibdi. Shunda podsho: «Agar bundan keyin kimki malikani Sarvigul deb atasa, tilini kesib, og‘ziga qo‘rg‘oshin quyaman», deb farmon chiqaribdi* (“Kanizak bilan podsho”, 42-b.).

Ushbu misolda ertak qahramoni (Sarvigul)ning ismi uning go‘zalligiga monand emasligidan shikoyat qilishi bayon etilgan. Shu o‘rinda *“Sarvigul”*ning izohiga to‘xtalib o‘tish masalaga oydinlik kiritadi. Sarvi (fors-tojik) – asli: tikka o‘sadigan, xushqomat daraxt (kiparis); kelishgan, xushqomat qiz, sarviqomat. Sarvigul – sarvdek xushqomat, bo‘yi-basti ko‘rkam, zebo qiz[1]. Sarv daraxti Sharq adabiyotida qaddi-qomatning go‘zalligini tasvirlashda keng foydalaniladi, biroq ushbu daraxtning guli majozlangan holatlar deyarli uchramaydi. Shuning uchun Sarvigul antroponimining quyidagi ma’noda tushunish mumkin: *qizning “gul” istiora shaklida qo‘yilishi va ushbu “gul”ning sarvdek qomatli ekanligi*. Bundan angashiladiki, ertak qahramoni qaddining sarv daraxtiga majozlanishidan tashqari boshqa go‘zalliklarini ham ifodalovchi ismga loyiq ko‘rilishiga ishora qiladi.

Ertak voqealari rivojida antroponimlarning nomlilik begisi ham ma’lum darajada vazifa bajaradi. Quyidagi ertak matniga diqqat qiladigan bo‘lsak, o‘zbek xalqi to‘y marosimlari bilan bog‘liq bir nechta o‘rinlar ko‘zga tashlanadi. Jumladan, nikoh to‘y marosimlarida qizil rang qiz tomon bilan bog‘liq tasvirlarda muhim o‘ringa ega bo‘lganligini, shuningdek, qadimda qalin olib kelishda qizil tuyalardan (ba’zan tuya ustiga qizil matolar yopib) foydalanilgan. Bu o‘rinda “qalim(n)ning 40 raqami bilan bog‘liqligi tilimizda kam uchraydigan noyob ism Qirqinboy antroponimining o‘rinli qo‘llanishiga sabab bo‘lgan.

– Bobo, teng ko‘rgan bo‘lsangiz endi, qizingizning qalimini ayting, – debdi.

– Bolam, otingiz nima?

– Ey bobo, otim ***Qirqinboy:***

– Ey bolam, otingiz Qirqinboy bo‘lsa, qirqta qizil norni yuki bilan bersin, to‘y-qo‘yini karvonboshining o‘zi biladi, – debdi (Oyjamol. “Savdogar bilan podachi”, 53-b.).

Navro‘z – leksemasi tilga olinganda, eng avvalo, o‘zbek xalqi lingvomadaniyatida bayram akslanadi. Navro‘z bayrami eski sana hisobidagi yangi yil va baharning boshlanishi munosabati bilan o‘tkaziladigan bayram[5]. O‘zbak xalqi orasida Navro‘z ismi, asosan, navro‘zda, ya’ni yangi yil kuni (oyi)da tug‘ilgan bolaga qo‘yiladigan ism hisoblanadi. “Navro‘z” atamasi qadimdan xalqimizning lisoniy manzarasidan o‘rin olgan bo‘lib, bolalarga ism sifatida qo‘yilishi ham ma’lum. Bu ism ijobiy xususiyatlarga ega ism sifatida tavsiflanadi. Quyidagi ertak matnida “Navro‘z” antroponimi salbiy xususiyatlarga ega obraz uchun tanlangan:

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan. ***Navro‘z*** *qaroqchi degan bir o‘g‘ri bor ekan. Navro‘z qaroqchi o‘g‘rilikka shunday berilib ketgan ekanki, agar biror kecha, biron bir narsani o‘g‘irlay olmay qolsa qo‘shnisining kosovini ug‘irlab chiqar ekan* (Oyjamol. “Navro‘z qaroqchi”, 70-b.).

Ertak davomida Navro‘z qaroqchining qaroqchilikdan voz kechishi, yaxshi yo‘lga kirishi, topganiga baraka kirishi, halol mehnat qilishi natijasida *“yangilanishi”*ga ishora qilingan hamda ertak matnida ochib berilgan.

Ba’zi ertaklarda o‘zbek xalqining bugungi kun til tizimida kam uchraydigan yoki umuman uchramaydigan ismlar ham mavjud. Bu ismlar orqali ertakdagi qahramonlarning, yuqorida aytib o‘tganimizday, ertak voqealari rivojidagi o‘rni ochib beriladi.

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, qadim zamonda bir podsho bo‘lgan ekan. Podshoning o‘ng qo‘l vazirining oti ***Hasanumaymanoz,*** *chap qo‘l vazirining oti Paxtak ekan[3].*

Yuqoridagi “Podshoning mot bo‘lishi” ertagi matnidan o‘rin olgan Hasanumaymanoz hamda Paxtak antroponimlarining qo‘llanilishida ham ma’lum maqsad ko‘zlangan. Dastlab Husanumaymanoz va Paxtak antroponimining semantik xususiyatlari haqida to‘xtalib o‘tsak, ertakdagi ushbu obrazlarning ertakdagi mevqeyini aniqlash imkoniga ega bo‘lamiz. Ushbu antroponim ***“Hasan+umay+manoz”*** kabi

[1] Бегматов Э.А. Ўзбек исмлари маъноси: (Изоҳли луғат). – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – Б. 376.

[5] Ўзбекистон миллий энциклопедияси. III том. – Тошкент, 2007. – Б 8.

[3] Ўзбек халқ ижоди. Кўп томлик. Ойжамол. Ҳаётий эртаклар. Иккинчи китоб. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1969. – Б. 17.

uch komponentdan iborat bo‘lib, ***“Hasan”*** – arabcha so‘z bo‘lib, *“yaxshi”, “tuzuk”; “chiroyli”, “sohibjamol”* ma’nolarini anglatadi. Ayrim manbalarda “ezgulik”, “farosatli” degan ma’nolarni ham ifodalashi ko‘rsatib o‘tiladi. ***“Umay”*** leksemasining izohi bo‘yicha aniq bir xulosaga kelish mushkul. Chunki “umay” so‘zi qadimdan ko‘pchilik xalqlar tilida mavjud bo‘lib, turli ko‘rsatkichlar o‘rnida qo‘llanib kelinadi. Bular ichida eng ko‘p qo‘llaniladigan tushuncha “Umay ona” ilohasi hisoblanadi. Umay (ba’zi manbalarda Umai, qozoq tilida Ұmay ana) ona turkiy xalqlar mif va afsonalariga ko‘ra tug‘ilish ilohasi sanaladi. Umay boshqa diniy e’tiqoddagilar, jumladan, Mesopotamiya va Hindistonda mavjud bo‘lgan *“Ona tuproq”* ilohalariga o‘xshash iloha. Umay ona ilohasi tug‘ilajak bolalarni tanlaydi. Doimo oq kiyimda yuradi, yerga tegadigan oq va kumush rangdagi sochlari bor. Sochlari oq bo‘lsa-da qari ko‘rinishda emas, o‘rta yoshlarda deb tasavvur qilinadi. Shuningdek, ushbu iloha hayot daraxtiga egalik qiladi, dunyoga barokat va nur tarqatadi. “Umay ona” O‘rxun-Enasoy bitiktoshlarida ham qayd qilingan bo‘lib, qadimgi turk va mo‘g‘ul xalqining barokat ilohasi, deb qaralgan. Ayni vaqtda u tug‘ilgan va tug‘ilmagan inson va hayvon bolasining himoyachisi sanalgan[1]. Umay ilohasi nomi keyinchalik insonlarga ism shaklida ko‘chgan bo‘lib, turkiy xalqlarning ko‘pchiligida antroponim sifatida qo‘llangan. Umay ismining izohini prof. E.Begmatov: “Umay, Umayxon – tug‘uvchi ayol va chaqaloqning piri”, – deb o‘rinli ko‘rsatadi. Ertakda qo‘llangan “umay”ning izohini qadimgi turk xalqi qarashlarida mavjud bo‘lgan *“barokat”* va *“himoyachi”* mazmunini ifodalovchi sifatida qo‘llangan, desak xato bo‘lmaydi. “Manoz” leksemasi haqida ham bir qancha yondashuvlar mavjud. Manoz so‘zining aynan adabiyotlarda qayd etilish o‘rni uchramadi. Ammo Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostonida *“manozil” (manzil)* hamda shoh Bahrom Xavarnaq hujralaridan birining devoriga chizilgan malikalardan birining ismi *Yag‘manoz* ismida ham “***manoz***”ni ko‘rishimiz mumkin. “Manoz” fors-tojikcha “mohnoz”, ya’ni *nurli, toleyi porloq, nozli, ishvali, yoqimtoy, yaxshi fazilatlar sohibi* ma’nolarni ifodalovchi qizlarning ismini ifodalanishi haqidagi ayrim qarashlar ham mavjud. Ertaklar matnida mana shunday murakkab tarkibli hamda faqat ertak uchun xoslangan antroponimlar (Vomiq, Egriboy, To‘g‘riboy, Tappak, Paxtak ko‘p uchraydi).

Ayni vaqtda o‘zbek tilidagi ismlarning ma’lum qismi o‘zbek xalqining yuksak madaniyati va ma’naviyati, nozik didi, go‘zallik va nafosatga oid mayllar bilan bog‘liqdir[2]. O‘zbek xalqida ham azaldan tug‘ilajak chaqaloqqa ism qo‘yishda uning taqdiriga bog‘liq, deb qaralib kelingan. Bola ko‘p kasalikka chalinsa, bolaga tanlangan ismni uning jismoniyati va tabiatiga mos kelmabdi, ***“ism og‘irlik qilibdi”*** degan qarashlar ham mavjud bo‘lgan (bugungi kunda ham bunday holatlar kuzatiladi). O‘zbek xalq ertaklarida ham xalqimizning orzu-intilishlari, farzandlar kamoli, ularning oqila farzandlari bo‘lib yetishishlari uchun o‘ziga xos ismlar tanlash holatlari uchraydi. Fikrimizni dalillash uchun 30 ta ertak matnida mavjud 99 ta ismni tanlab, guruhlarga ajratib chiqdik. Natija shuni ko‘rsatdiki, ertaklardagi antroponimlar, asosan, yoshi kattalarning, xususan, buva-buvilarning va ota-onalarning ***orzu-umidini*** ifodalovchi ismlar ko‘pchilikni tashkil qildi. Biz tahlil qilgan o‘zbek xalq ertaklaridagi antroponimlarni quyidagi guruhlarga bo‘lishni lozim topdik:

1) fitonimlar bilan bog‘liq nomlar: ***Gul*** (f-t.), ***Bo‘tako‘z*** (turk. – ko‘zlari katta va qora ko‘zli qiz, bo‘tako‘z gulidek go‘zal qiz), ***Paxtak*** (turk. Ushbu so‘z laqab yoki nisbat ma’nosida kelgan, o‘zbek ismlari tizimida uchramaydi. Ertakdagi qahramon xarakterini ochish uchun qo‘llangan bo‘lib, faqat dukkaklilarga mansub, bo‘yoqchilikda xomashyo sifatida ishlatiladigan buta ma’nosini bildiradi)***, Gulasal*** (f-t+a.), ***Gulanor*** (f-t.), ***Gulizor*** (f-t.), ***Tongguli*** (turk+f-t.), ***Sanobar*** (a. – qarag‘ay. Doim yashil rangdagi manzarali daraxt), ***Laylo*** (a.), ***Olmagul*** (turk.+f-t. – olma gullaganda tug‘ilgan qiz), ***Anorgul*** (f-t. – anorning gulidek chiroyli qiz);

2) qimmatbaho ma’dan yoki metall asosida qo‘yilgan nomlar: ***Kumushxon*** (turk.+f-t.), ***Zumrad*** (f-t.), ***Bektemir*** (turk.);

3) osmon jismlari bilan bog‘liq nomlar: ***Zuhra*** (a.), ***Oyjamol*** (turk.+a.), ***Oytug‘di*** (turk.+turk. – *yangi oy tug‘ilganda tug‘ilgan bola),* ***Oyparcha*** (turk.+f-t.), ***To‘lg‘onoy*** (turk.+turk.), ***Qamarxon*** (a.+f-t.), ***Xurshid*** (f-t.)***, Bahrom*** (f-t.), ***Mehrinigor*** (a.+f-t.);

4) yil, vaqt va fasllar bilan bog‘liq nomlar: ***Gulbahor*** (f-t.+f-t.), ***Asad*** (a.), ***Olmagul*** (turk.+f-t. – olma gullaganda tug‘ilgan qiz);

5) diniy qarashlar asosida yuzaga kelgan nomlar: ***Hasanumaymanoz*** (a.+turk+f-t.), ***Nazar*** (a.), ***Ollanazar*** (a.), ***So‘fibek*** (f-t.), ***Abdukarim*** (a. – karamli, allohning quli), ***Abdulaziz*** (a.)*,* ***Muhammad*** (a.), ***Madamin*** (a.), ***Begmat*** (turk.+a.), ***Erali*** (turk.+a.),

[1] https://uz.wikipedia.org/wiki/Umay_ona#Etimalogiyasi

[2] Бегматов Э.А. Ўзбек исмлари маъноси: (Изоҳли луғат). – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – Б. 593.


Sherali (f-t.+a.), ***Qahhor*** (a.), ***Ahmad*** (a.), ***Hasan*** (a.), ***Huriliqo*** (a.), ***G‘ulom*** (a.), ***Xoliqberdi*** (a+turk.), ***Muhammadnazar*** (a.), ***Gilmonniso*** (a.), ***Mamatboy*** (a.), ***Abdulla*** (a.), ***Qosim*** (a.), ***Ibrohim*** (qad. yahudiy);

6) bolaning tug‘ilishi (ba’zi xususiyatlariga asoslanib) bilan bog‘liq holatlarga asoslanib qo‘yilgan nomlar: ***Hadicha*** (a.), ***Turg‘unboy*** (turk.), ***Pardavoy*** (f-t.), ***Bo‘z*** (turk.), ***Qo‘chqor*** (turk. – asosan, peshonasi do‘ng, qo‘chqordek baquvvat, kuchli yigit bo‘lisin, deb qo‘yiladi), ***Humoyun*** (f-t. – ushbu ism asosan o‘g‘il bolalarga qo‘yilsa-da, ertakda qiz bolaga nisbatan qo‘llangan), ***Mahliyo*** (a.), ***Ziyod*** (a.), ***Tursunbek*** (o‘zb), ***Zulayho*** (a.), ***Karomat*** (a. – biror g‘ayri tabiiy belgi bilan tug‘ilgan), ***Anorgul*** (f-t. – qizil xolli, guldek go‘zal qiz yoki anorning gulidek chiroyli qiz), ***Zulfiya*** (f-t. – sochi o‘ralib tug‘ilgan, jingalak sochli qiz);


7) orzu va umid natijasida yuzaga kelgan nomlar: ***Qorabotir*** (turk. – kuchli, jasur), ***Qoravoy*** (turk.), ***Qoraxon*** (turk.), ***Oqbilakoyim*** (turk.+turk.+turk.), ***Xo‘jatursun*** (f-t.+turk.), ***Soqi*** (a. – sog‘lom, ziyrak), ***Boqi*** (a. – umri boqiy bo‘lsin), ***Rustam*** (pahlaviycha – ulkan gavdali), ***Nodirshoh*** (a.+f-t.), ***Zol*** (f-t.), ***Abdulmutal*** (a.), ***Shavkat*** (a.), ***Odilxon*** (a+f-t.), ***Iqbol*** (a.), ***Muhabbat*** (a.), ***Malikayi Nusrat*** (a.), ***Murod*** (a.), ***Fotih*** (a), ***Salim*** (a.), ***Siddiq*** (a.), ***G‘ayrat*** (a), ***Sulton*** (a.), ***Anvar*** (a.), ***Mo‘tabar*** (a.), ***Mukarram*** (a.), ***Jalol*** (a.), ***Nasiba*** (a.), ***Adolat*** (a.), ***Salomat*** (a.), ***Akbar*** (a.), ***Qimmat*** (a.), ***Sherzod*** (f-t.), ***Shohanvor*** (f-t.+a.), ***Muqbil*** (a.);

8) asbob-anjomlar bilan bog‘liq nomlar: ***Tesha*** (turk. – tesha kabi mustahkam va o‘tkir bo‘lsin), ***Bolta*** (turk. - kindigi kesilgan bola, boltadek keskir va mustahkam bo‘lsin), ***Qilich*** (turk. – kindigi kesilgan bola).

O‘rganilgan ertaklardagi antroponimlarning guruhlar bo‘yicha nisbati quyidagicha bo‘ldi:



Har bir xalq ma’lum bir xalqdan, qaysi sohada bo‘lishidan qat’iy nazar, ma’lum miqdorda so‘z oladi. Bunda xalqlar o‘rtasidagi milliy-madaniy, ijtimoiy-siyosiy aloqalar muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Xususan, ertaklarda mavjud ismlarning yasalish tarkibi ham o‘ziga xos. Masalan, *Oy+tug‘di* (turk.+turk.), *Tong+guli* (turk.+f-t.), *Oy+jamol* (turk+a), Xoliqberdi (a.+turk.), *Gul+asal* (f-t.+a.), *Shoh+anvor* (f-t.+a.) kabi qoliplar asosidagi ismlar uchraydi. Ismlarning lug‘aviy va qaysi qatlamga doirligini tahlil qilishda ba’zi jihatlarga e’tibor qaratish lozim. Masalan, xalq og‘zaki ijodida ko‘p uchraydigan Rustam ismining qaysi qatlamga oidligi haqida ikki xil qarash mavjud. “O‘TIL”da “Rustam” epik xalq dostonlarining hamda Firdavsiy “Shohnoma” asarining an’anaviy, afsonaviy qahramoni” sifatida talqin qilin qilinib, forscha so‘z ekanligi qayd etiladi. E.Begmatov “ismlar lug‘ati”da esa pahlaviychadan olingan, “Avesto”dagi Raodastan so‘zidan yasalgan hamda *“ulkan gavdali”, “qudratli”, “dovyurak”, “bahodir”* kabi ma’nolarni ifodalashini keltirib o‘tadi. Bu esa ertaklar tilidagi ismlarning qaysi qatlamga oidligiga e’tibor qaratishimiz lozim ekanligini ham ko‘rsatib turibdi. Shunga asoslanib, yuqorida tahlil qilgan ertaklardagi antroponimlar tizimini quyidagicha tahlil qilishimiz mumkin:



Ertaklardan ajratib olgan antroponimlarning qaysi til tizimi qatlamiga oidligi yuzasidan olib borgan tadqiqotimiz shuni ko‘rsatdiki, “o‘zbek xalq ertaklari ismlari tizimining lug‘aviy qatlamini, asosan, turkiy, forscha, arabcha kabi birliklar tashkil etadi”[1]. Tahlil uchun tanlangan 99 ta ismdan arabcha so‘zlar ko‘pchillik, ya’ni 48 tani tashkil etdi. Bu esa o‘zbek xalqining azaldan, asosan, islom diniga e’tiqod qilishi oqibatida yuzaga kelgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, o‘zbek xalq ertaklaridan o‘rin olgan ismlarning lug‘aviy ma’nolarini tahlil qilish, lingvomadaniy jihatlarini ochib berish, statistik tahlilini aniqlash bugungi kun tilshunosligimiz oldida turgan muhim masalalardan biri. Quvonarlisi shundaki, birinchilardan bo‘lib Sh.Rahmatullayev tomonidan amalga oshirilgan “O‘zbek xalq ertaklari tilidagi antroponimlarning lingvokulturologik tadqiqi” nomli ishi bu borada qo‘yilgan ilk qadamlardan biri bo‘ldi.

Rezyume. Mazkur maqolada har bir xalqning o‘tmishidan hikoya qiluvchi janrlardan biri – ertaklar tilida mavjud ayrim antroponimlarning semantik va lingvomadaniy xususiyatlari haqida so‘z boradi. Xususan, ushbu maqolada xalq ertaklaridagi antroponimlarning ertakdagi voqea-hodisalarni ifodalashda ishora sifatida tanlanishi to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan bo‘lib, o‘zbek xalqining lingvomadaniy qarashlarida antroponimlarning o‘ziga xos jihatlariga e’tibor qaratilgan. Shuningdek, ertaklardagi antroponimlarning statistik tahlili va qaysi leksik qatlamga oidligi tahlilga tortilgan.

[1] Rahmatullayev Sh. O‘zbek xalq ertaklari tilidagi antroponimlarning lingvokulturologik tadqiqi: Filol.fan.b.fals.dok. ...diss.avtoref. – Buxoro, 2023. – B. 20.

Resume. This article talks about the semantic and linguistic-cultural features of some anthroponyms in the language of fairy tales, one of the genres that tell about the past of each nation. In particular, this article provides information on the selection of anthroponyms in folk tales as a sign in the expression of events in the fairy tale, and focuses on the unique aspects of anthroponyms in the linguistic and cultural views of the Uzbek people. Statistical analysis of anthroponyms in fairy tales and which lexical layer they belong to are also analyzed.

Резюме: В данной статье говорится о семантических и лингвокультурных особенностях некоторых антропонимов в языке сказок, одного из жанров, повествующих о прошлом каждого народа. В частности, в данной статье представлена информация о выборе антропонимов в народных сказках как знака при выражении событий в сказке, а также акцентировано внимание на уникальных аспектах антропонимов в лингвокультурных воззрениях узбекского народа. Также анализируется статистический анализ антропонимов в сказках и того, к какому лексическому слою они относятся.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

МЕДИА ТИЛИДА МУҚОБИЛСИЗ ЛЕКСИКА ТАСНИФЛАРИ: НАЗАРИЙ ЁНДАШУВ

Джаббарова Шоира Балтаевна,
Термиз давлат университети инглиз тили ўқитиш методикаси кафедраси, филология фанлари бўйича фалсафа доктори

Маданиятлараро мулоқотда жамиятдаги муносабатлар жараёнида тил орқали ахборотни саралаш, қайта яратиш ва узатиш воситаси сифатидаги вазифаси ўта мураккаб жараёндир.

Публицистик асарларда муқобилсиз лексиканинг қўлланишидаги асосий сабаблардан бири матбуот матнларининг оммавий коммуникация соҳасига тааллуқлилиги ҳамда ахборий ва коммуникатив функциялардан ташқари, мафкуравий, миллий-маданий функцияларни бажариши каби омилларда кўринади. Зеро, маданиятлараро мулоқотда жамиятдаги муносабатлар жараёнида тил орқали ахборотни саралаш, қайта яратиш ва узатиш воситаси сифатидаги вазифаси ўта мураккаб жараёндир.

Айниқса, вербал ахборотни трансформация қилишда ўзга тил хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда, ахборотни менталлик ҳамда қадриятлар тизими замирида ўзига хослиги акс эттирилади., тил ва маданият алоқаси, улардаги тафовутлар ҳақида фикр юритилар экан, муқобилсиз лексика тушунчасини изоҳлаш, тавсифлаш ушбу йўналишдаги муҳим ва долзарб масалалар қаторида туради. Зеро, тил ва маданият ўртасидаги алоқанинг фарқли жиҳатлари айнан муқобилсиз лексика доирасида яққол намоён бўлади.

Тилшуносликка оид энциклопедик луғатларда муқобилсиз лексика терминига кенг ва тор маънода қуйидагича изоҳ берилади: "Муқобилсиз лексика – (лотин тилидан aequus – тенг, valens – қийматга эга бўлган маъносини билдиради) чет тилидан кириб келган, сўзларнинг она тилида ўхшаш маъноли сўзларнинг мавжуд эмаслиги"[1].

Муқобилсиз лексика масалалари ва уларга оид изланишлар XX асрнинг иккинчи ярмидан бошланган бўлиб, жумладан, инглиз олими Теодор Сайвори "The Art of translation" номли китобида қуйидагича қайд этади: "Trouble of a different kind arise from gaps in languages which cannot be filled in translating, because for a word that may be quite familiar in one language there is no equivalent in another"[2].Унинг фикрича, бундай мураккаблик ва хилма-хилликларнинг пайдо бўлиши сабаблари

[1] Азимов Э.Г. Щукин А.Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обученя языкам). – М.: Икар, *2009*. – 448 с.

[2] Savory T. The art of translation. – London: J. Cape,1957. – P. 14.